



## XALQ DOSTONLARIDA TAKRORLARNING SEMANTIK TABIATI

Xadjimusaeva Nilufar Nematovna  
JDPU, f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalq baxshisi Islom shoirning "Orzigul" dostonida qo'llanilgan takrorlarning ishlatilish o'rni haqida bayon qilingan.

**Annotatsiya:** В данной статье описывается использование повторов, использованных в стихотворении «Орзигуль» узбекского народного поэта Ислама.

**Annotation:** This article describes the use of repetitions used in the poem "Orzigul" by the Uzbek folk poet Islam.

**Kalit so'zlar:** Lingvopoetika, trop, uslubiy figura, tovush takrori, so'z takrori, gap takrori.

**Ключевые слова:** Лингвопозэтика, троп, стилистическая фигура, повторение звуков, повторение слов, повторение речи.

**Keywords:** Lingvopoetics, trop, stylistic figure, repetition, sound repetition, word repetition, speech repetition.

Dostonlar tilining lingvopoetik jihatdan o'ziga xosligini ta'minlovchi vositalardan biri ifoda-tasvir vositalari hisoblanadi. Tilshunos olim N.Mahmudovning ko'rsatishicha: «Nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ko'chimlar (yoki troplar) nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi. Shuning uchun ham ko'chimlar o'ziga xos tasviriy vositalar sifatida nutqning ifodaliligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi»[1]. Olimning bu fikrlari o'zbek tilining badiiy uslubi, unda qo'llanuvchi ifoda-tasvir vositalarni maxsus tadqiq etgan tilshunos S.Karimov tomonidan yanada izchil davom ettirilgan: «Ularning troplap deb ataluvchi qismi obraz yaratishda bevosita ishtirok etsa, ikkinchi bir qismi – uslubiy figuralar esa garchi obraz yaratmasa-da, ana shu obrazlarning shakllanishiga, barkamol, pishiq bo'lishiga, o'quvchining matnni to'g'ri





va tez tushunib olishiga ko‘maklashadi. Ko‘chma ma’noda qo‘llanilayotgan, obraz yaratayotgan til birliklari darajasida bo‘lmasa ham, ular vaziyatga qarab qo‘shimcha ma’no ifodalaydi, tasvir ob’ektiga ijodkor bahosini beradi, yuksak emotsionallikni yuzaga keltiradi. O‘quvchi yoki tinglovchidagi hissiyotlarning junbushga kelishida tezlashtiruvchi vosita rolini – katalizatorlik vazifasini bajaradi, yozuvchiga ko‘makdosh bo‘ladi. Badiiy ijodning qiyinchiligi ham shundaki, yozuvchi his-tuyg‘ularni o‘zi qanoatlanadigan darajada ifodalay oladigan til birligini axtaradi. Ularni bir-birlariga chog‘ishtiradi, qarama-qarshi qo‘yadi, yonma-yon qo‘llaydi, takror ishlatadi va hokazo. Zero, troplarning o‘zi so‘zlarni asl ma’nolaridan ko‘ra ko‘proq ko‘chma ma’noda qo‘llashga intilishning natijasidir»[2]. So‘zlovchi yoki yozuvchi doimo o‘z fikrlarining mukammal, go‘zal, ixcham, mantiqli, aniq, ta’sirchan va tushunarli bo‘lishiga intiladi. Buning uchun fikr ifodalashda o‘z maqsadiga erishish uchun o‘quvchi yoki tinglovchi ruhiyatiga ta’sir etadigan jimjimador, ta’sirchan so‘z va jummalarni qo‘llashga harakat qiladi. Agar u biror narsa, belgi, xususiyatni nutq qaratilgan shaxsga yetkazishda ma’lumot, xabar, atash mazmunidagi oddiy birliklar o‘rniga shu mazmunni o‘zida saqlagan holda bo‘yoqdor va ta’sirchanlikka ega bo‘lgan boshqa vositalarga murojaat qiladi. Ana shu ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan bir guruh vositalar borki, ular o‘zida ham ifodalilikni, ham tasviriylikni aks ettiradi. Filologiya ilmidagi ifoda–tasvir vositalari deyilganda, shu vositalar nazarda tutiladi. Tilshunoslikda ifoda-tasvir vositalari troplar va figuralar deb ikki qismga ajratiladi. Ularning troplar qismida epitet (sifatlash), o‘xshatish, metafora (istiora), metonimiya, sinekdoxa, mubolag‘a, litota (kichraytirish), ironiya (kinoya), allegoriya, jonlantirish, perifriza kabi tasviriy vositalar to‘g‘risida gapirilsa, ishning figuralar qismida takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, jim qolish, ritorik so‘roq, ritorik undash, ko‘p bog‘lovchilik va bog‘lovchisizlik tipidagi poetik sintaksis vositalari haqida ma’lumot beriladi [3].

Epik dostonlar matnining til xususiyatlarini o‘rganish nafaqat ona tilimizning teran tarixiy ildizlari haqida, ayni paytda, uning lingvomadaniy konseptlarini, troplar tizimi va uslubiy figuralarning lingvopoetik imkoniyatlarini aniqlashga ham yordam beradi. Masalaning ikkinchi jihati har bir doston kuylovchining individual-badiiy mahoratini o‘rganish hisoblanar ekan, bu o‘rinda bu ikki jihat o‘z-o‘zidan birlashadi. Masalaning ana shu jihatlarini inobatga olib, maqolamizda «Orzigul» dostonini kuylashda saqlangan an’anaviylikni va Islom shoirning eksprompt yoki biror





tayyorgarliksiz ijro qilish – improvizatsiya jarayonida stilistik sintaksis yoki badiiy tasvirning boshqa vositalaridan, ya'ni **takrordan** foydalanishdagi mahoratini ko'rsatib berishni maqsad qilib qo'ydik.

Islom shoir dostonida uchraydigan takror san'atining tovush takrori va so'z takrori singari ko'rinishlari ham an'anaviylikka sodiqlik namunalari. Islom shoir uslubining yorqin namunasi gap takrori va bu gapning doimo bir o'rinda – to'rtlikning oxirida takrorlanishidir. Orzigulni o'ziniki qilib olish qasdiga tushgan Olloyor Oqtosh hukmdori Sulxonning ishonchiga kirib oladi. Ularning shaharda emasligidan foydalanib, Orzigulga tuhmat uyushtiradi. Uch yashar bolasini yarador qilib chuqurlikka tashlab yuboradi. U yerda yotgan uch yashar Dilmurodning nolasini shoir shu tarzda beradi: Ena eding menga bo'lib mehribon, Gardanimdan kelib dushman oldi qon, Tashlab ketdi, otam meni Suvonxon, Xandaq ichra yolg'iz qoldim, enajon. Qo'zichoq deb, yuzlarimga to'ymasding, Uchunar deb, yolg'iz uyga qo'ymasding, Meni tashlab hech bir yoqqa ketmasding. Xandaq ichra yolg'iz qoldim, enajon. Hushga kelib, so'ngra meni bilasan, Yig'lab kelib jasadimni topasan, G'animat deb, gul betimdan o'pasan, Xandaq ichra yolg'iz qoldim, enajon.

Muayyan bir ritm asosida kelayotgan bu takror kuchli poetik vosita sifatida doston tinglovchiga kuchli ruhiy ta'sir qiladi. Bu ta'sir keyingi to'rtliklardagi Bu holimdan xabar olgin, enajon! Musofirdan xabar olgin, enajon! (348-349) takrorlari bilan yanada kuchayib boradi.

Dilmurodni izlash jarayonida Orzigulga qarata qaynonasi aytgan so'zda shu usulda qo'llangan takror ham uning ruhiy iztirobini ifodalovchi yorqin tasviriy vositadir: Aytgin, qizim, Dilmurodni naylading? Dilimning quvvati, jonni naylading? U kokildor madadkorni naylading? (350).

Qofiyadan keyin radif bo'lib kelgan naylading so'zining takrorlanishi quyma misralarning tug'ilishiga, tabiiyki, bundan kelib chiqadigan so'roq izchilligi va qat'iyligiga sabab bo'lgan. Ayni paytda, misralardagi ekspressivlik va ularning emotsional ta'siri ham xuddi shu tasviriy vositaga bog'liq tarzda yuzaga keladiki, takrorning bu o'rindagi poetik vazifasi aynan ana shundan iboratdir.

Firibgar Olloyor tilida Xudoyo juvonmarg bo'lsin, Orzigul! jumlasining Orziguling birovlariga yor ekan, Shu fe'li yoshligidan bor ekan, Qushqanotda qirq o'ynashi bor ekan, Xudoyo juvonmarg bo'lsin, Orzigul! (352-353) tarzida bayon





davomida yana besh marta takrorlanishi doston tinglovchining bu razil kimsaga nisbatan nafratini bosqichma-bosqich kuchaytirib boraveradi.

Ba'zan shoir jo'shib kuylagan jarayonda o'ziga ma'qul misrani takror-takror, xuddi naqorat shaklida qo'llashi mana shu jo'shqinlikning tasdig'i sifatida namoyon bo'ladi. Bu usul ijodkorga kuch va ilhom beradi. Baxshi ilhomidan ta'sirlangan tinglovchi ham Suvonxon botir va uning yigitlarining Orzigul va uning farzandini qutqarish yo'lidagi harakatlaridan zavqlanadi: Arg'imoqqa qilib qasdni, Beklar bilmay baland-pastni, Ko'ring qirqta shog'olmasni, Oqtoshdan chiqib jo'nadi, Jo'nadi, beklar jo'nadi (362). O'rni bilan misraning Jo'nadi, Suvon jo'nadi variantiga almashtirish ham ana shu ta'sirchanlik uchun xizmat qilgandir.

Suvonxon tilida berilgan Ko'z ko'rmagan baland joylar, Usti qorli baland tog'lar, Shu yerdan yorim o'tdimi? (363). Yoki Orzigul aytgan: Ovoralar qildi maydon, dashiga, Yoqa ho'l bo'p ko'zdan oqqan yoshiga, Sig'dirmadi bizni Oqtosh eliga, Borma, bolam bevafoing qoshiga! (366) parchalaridagi Shu yerdan yorim o'tdimi?, Borma, bolam, bevafoing qoshiga! tarzidagi gaplar takrori ham doston tinglovchisi uchun g'oyatda jozibali eshitiladi.

«Orzigul» dostoni poetik sintaksisi tizimida uyushiq bo'laklarning o'rni ham sezilarli darajadadir. Bu esa Islom shoirning gap bo'laklarini ketma-ket qo'llashni ifodada ta'sirli usullardan biri sifatida e'tirof etganligining natijasidir.

Gap bo'laklarini uyushtirib qo'llashda bir necha holatlar kuzatiladi. Jumladan: aniqlovchilar, aniqrog'i, poetik aniqlovchilar – epitetlar uyushgan: Ular tepa ustiga chiqib qarasalar, haqiqatan, saraton yulduzli, o'tkir ko'zli, yo'lbars bilakli, sher yurakli, boshida yallug'i yaraqlab Suvonxon ko'rindi (309). Oy yuzli, o'tkir ko'zli, sertamizli, saraton yulduzli, shirinso'zli, yo'lbars bilakli, qoplon yurakli Dilmurod bilan momasi ko'rishdi (378). Har ikkala gapda ham alohida olingan epitetli birikmalar to'g'ridan-to'g'ri Suvonxon yoki Dilmurodga bog'lana oladi. Ammo bu birikmalarning ketma-ket qo'llanishi bu bog'lanishdan ekspressivligi bilan farq qiladi. Har bir tavsifning berilishi bilan obrazga xos xususiyat to'ldirilib, kengaytirib boriladi. Oqibatda, obrazning mukammal kartinasi namoyon bo'ladi. Agar masalaning bu jihatiga obraz ta'rifining semantik ko'lami kengayishi deb qaralsa, bir tavsifdan ikkinchisiga o'tish barobarida obrazdagi ijobiy xislat, birinchidan, ta'kidlanadi, ikkinchidan, unga nisbatan ijodkorning sub'ektiv munosabati izhor etiladi. Mana shu tarzda qo'llanish jarayonida





grammatik vosita sifatida uyushiq bo‘laklarning badiiy matndagi poetik vazifasi aniqlanadi;

– metaforizatsiyalashgan bo‘laklar ketma-ket keladi, gap tarkibidagi boshqa bo‘laklarning grammatik shakli ham ularga moslashtirilgan: Otasi: - Qatordagi norim, xazinadagi zarim, suyangan bog‘u bo‘stonim seniki bo‘lsin Oqtosh shahrim, - deb o‘g‘lini maktabga berdi (288). Shunda podsho o‘g‘liga: - Qo‘sh kokilim, suyanganda Asqarday belim, qatordagi norim, Suvonxon ajdahorim, senikidir ushbu shahrim (292) kabi;

– undalmalar uyushgan va gapning ayrim bo‘laklari ularga moslashgan: Orzigulning onasi: - Bolam, qizim, ko‘rar ko‘zim, sendan boshqa farzand ko‘rmadim o‘zim, o‘g‘limning o‘rniga olgan yolg‘izim, qahraboday sarg‘aydi oyday yuzim, bu jahonda men suyangan farzandim, - deb yig‘ladi. Ota-onasi Orzigulni kuzatib qoldilar (281). Metaforizatsiyalashgan bo‘laklar va undalmalar uyushganda, adresantning subyektiv munosabati bilan birgalikda ruhiy holatini ham anglash mumkin bo‘ladi;

– fe‘lning vazifadosh shakllari – ravishdoshlar uyushgan: Bir kun hujrada uxlab qolibdi. Yarim oqshom o‘tgandan keyin bir gul yuzli dilbar uning tushiga kiribdi. Sochini maydalab o‘rib, shoyi-shalparlarini kiyib, qimmat baho ro‘molini boshig‘a jelvagay tashlab, chap biqinini ushlab, Suvonxonning vaqtini xushlab, barmog‘ini tishlab, salom berib, Suvonxon qoshiga keldi (288). Otni egarlab, yuganlab, no‘xtalab, puxtalab, tabladan chiqib o‘rtalab, ikki kaniz yetaklab, buvushining oldiga olib keldi(296).

Doston matni uyushiq bo‘laklari sirasida mana shu shakldagi sintaktik qurilmalar asosiy qismni tashkil etadi va badiiy-sintaktik parallelizmlar sifatida namoyon bo‘ladi. Yana: tugib, kuyib, ketib, o‘tib, uyib... (274), mindirib, yuganlab, puxtalab, ushlab, yetaklab, o‘tib... (281), ko‘rib, berib, qilib... (271), xushlab, chog‘lab, tashlab, tishlab, tashlab, xushlab... (287), olib, quvonib, ishonib, turib, tashlab, ushlab, tishlab, ushlab (303), borib, tushirib, tishlab, tashlab, ushlab, xushlab... (315), buzilib, tizilib, ezilib... (320), tishlab, ushlab, xushlab, boshlab...(301), qarab, tarab, so‘rab... (301), yuvib, olib, boqib, ko‘rib, kulib... (319), boshlab, xushlab... kabi.

Gapning kesimiga bog‘lanadigan ushbu bo‘laklarning uyushishi manbalarda ritmik proza yoki sa‘j’ deb nomlangan poetik san‘at ekanligi va uning go‘zal namunalari turkiy xalqlar adabiyotida, ayniqsa, xalq og‘zaki





ijodida qadimdan mavjud bo‘lganligi aytiladi.[4] Xalq epik asarlarida bu usulning mavjudligi baxshilarning doston kuylash jarayonidagi ravonlik, musiqiylik va ohangdorlikka intilishi bilan bog‘liqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Махмудов Н. Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари. – Тошкент, 2006. –N2(11). – Б. 68.
2. Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода-тасвир воситалари. – Самарқанд, 2005. – Б.5.
3. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б.3.
4. Жирмунский В.,Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. –М., ГИХЛ. – С.445.

